

Date: 3rd March-2025

“BOBURNOMA” ASARIDA FITONIMLARNING QO’LLANILISHI

Hojiyeva Nigina Hayotovna

Bux.DPI filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

nigina_hojiyeva@buxdpi.uz

Ashurova Asalxon Barot qizi

Bux.DPI magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Boburning o'zbek tilshunosligiga qo'shgan hissasi va u kezib chiqqan joylarda yetishtiriladigan yoki tog', yaylovlarida o'sadigan o'simlik nomlarining „Boburnoma“ asarida keltirilishi haqida so'z yuritiladi. Bu o'simliklarning o'zlari o'sadigan o'lkalarda qanday nomlanishi, hamda nima maqsadlarda foydalanilishi haqida malumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar „Boburnoma“, qulon quyruq, chilg'o'za, balut, zaytun, ro'ya, vig'uvonzor, sadbarg lola, nayshakar, Kobulning ravochi, „Ismoil shayxiy“, „ayiq o'ti“.

Абстрактный. В данной статье рассматривается вклад Бабура в узбекское языкознание и описание вида, который выращивался в местах его путешествия или рос на горных лугах. Говорят, что названия растений приводятся произведении «Бобурнаме». Как называют эти растения в регионах, где они произрастают и для каких целей он предусмотрен.

Ключевые слова „Бобурнаме“ осел, хвост, веснушка, облако, маслина, роян, вигвонзорзор, садбarg тюльпан, улитка, Равачи из Кабула „Исмаил Шейх“, „Медвежья трава“

Abstract. This article discusses Babur's contribution to Uzbek linguistics and the description of the species that was grown in the places where he traveled or grew in mountainous meadows. It is said that the names of the plants are quoted in the work "Boburname". How these plants are called in the regions where they grow and for what purposes it is provided.

Keywords „Boburname“ donkey tail, freckle, cloud, olive, royan, viguvonzor, sadbarg tulip, snail, Ravachi of Kabul, „Ismail Sheikh“, "Bear Grass"

Bobur Mirzoning hayot va ijod yo'li haqiqatan ham diqqatga sazovor. Uning „Boburnoma“ asari ensiklopedik asar bo'libgina qolmasdan, unda tilshunoslik, adabiyot, geografiya, san'at va tibbiyotga oid bir qancha boy ma'lumotlar uchraydi. Darhaqiqat, Bobur Farg'ona vodiysi, Samarqand, Kobul va Hindistonda tarqalgan 150 dan ziyod o'simliklarning nomi, ta'rifi, tarqalishi va yana o'zbekcha, arabcha va hindcha nomlarini o'z asarida keltirgan.

Bobur Axsining qovunlari haqida quyidagi fikrlarni aytadi: „Qovuni yaxshi bo'lur. Bir nav qovundir kim, „Mirtemuriy“ derlar, andoq qovun ma'lum emaskim olamda bo'lg'ay“. [1;8] – deya o'zi yashagan davrda Axsi shahrida yetishtirilgan qovun navi haqida ma'lumot beradi.



Date: 3rd March-2025

Undan tashqari Farg'ona vodiysining o'simlik dunyosi shu jumladan „Tobulg'u“ nomli o'simlik haqida ushbu ma'lumotlarni keltiradi: „Tobulg'u yig'ochi bu tog'larda bo'lur, o'zga hech yerda bo'lmas. Tobulg'u bir yig'ochdur, po'sti qizil, aso qilurlar, qamchi

dastasi ham qilurlar, qushlarga qafas qilurlar, tarosh qilib tirgaz qilurlar, heyli yaxshi yig'ochdur “[1;9]. Ushbu o'simlik turi hozirgi tolning o'rnini bosuvchi o'simlik bo'lgan. Tol novdalaridan ham xuddi shu maqsadda foydalaniladi.

Bobur Farg'ona tog'larida „yabruh -us-sanam“ ya'ni, mehriyoh o'tini izlaydi. Lekin bu yerlarda uning nomini eshitmaganini, mehriyoh o'rniga boshqa o'tni topganini aytadi. va shunday deydi: „Bir giyoh eshitdikim, Yettikentning tog'larida bo'lur, ul el „ayiq o'ti“ derlar. Mehriyoh xosiyatliq” [1;9]. Bobur qovunning yana bir navi haqida ma'lumot keltirar ekan, uningdek qovun boshqa hech qayerda uchramasligini aytadi. „Nasuxda bir nav qovun bo'lurkim, „Ismoil shayxiy“ derlar, terisi sariq, kemuxtluq, osuda qovun bo'lur, ta'mi olmacha, go'shti to'rt ilik ajab laziz qovundir”. [1;60]

Bobur Kobul manzaralari haqida yozar ekan shunday deydi: „Nayshakarni man kelturub ekturub edim. CHilg'ozani Nijrovdin keltururlar. Kobulning ravochi xo'b

bo'lur, bodring dag'i yaxshi bo'lur” . [1;135] Demak bu jumladan bilamizki, Kobulga Nayshakarni Bobur olib borgan. Nayshakar, ya'ni

hozirgi shakarqamish demakdir. a U Kobulni kezar ekan 32-33 nav g'ayri mukavar lola turini ko'rganini aytadi. „Bir nav lola bo'lurkim, andin andak qizil gul hidi kelur, Lolayi gulbo'y der eduk. Paravondin quyiroq sadbarg lola bo'lur, ul ham bir parcha yerda G'urband tangisining chiqishida bo'lur” Bu ma'lumotlar orqali mutafakkining nechog'lik sinchkov inson bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Yana bir gul navi bo'lib, uni Bobur o'z ko'zi bilan ko'rmaganini aytadi. „sariq arg'uvon bila qizil arg'uvon domanada davr ham ochilar. Mushk hidi andin kelur emish, „mushi- mushkin“ derlar “[1;144].

Kobul manzaralari tugagach, Bobur G'azna tabiati haqida ma'lumotlar keltirar ekan, Kobul ekinidan u yerning hosili yaxshi bo'lishini aytadi va ro'yan nomli o'simlik haqida

ma'lumot keltiradi. „Ro'yan ekarlar. Tamom Hindustonga borur. Bu elning yaxshi mahsuli ro'yondur” . [1;144]. Andarob va Xost, Badaxshonot tog'lari archali, chashmali va yumshoq o'tli tog'lardir. Bu tog'lardagi „butaka” o'ti haqida yozadi. Bu o't otlar uchun yaxshi yemishli o'tdir deydi. „Bu o't buta – buta chiqar uchun „butaka” derlar emish”.

SHuningdek, Nijrov, Lamg'ano, Bajavr va Savod tog'larida o'suvchi noju, chilg'o'za, balut, zaytun va xanjaqliq o'simliklarining nomlarini ham keltirib o'tadi. SHunday o't nomini aytadiki, u orqali baliq tutilish usuli asarda yozilgan. „Yana kuz mahallaridakim, qulan quyrug' degan o't chiqib kamolga yetib, gul qilib, dona bog'lar, bu qulon quyrug'idan o'n o'n ikki pushtvora yana ko'k shiboqdin yigirma – o'ttiz pushtvora suv boshig'a kelturub sanchib, baliq tutarlar” [1;150]. Demak, qulon quyruq o'simlik orqali avvallari baliq ovlashgan. Unda karaxt qiluvchanlik xususiyati mavjud bo'lgan. Kobulda, undan tashqari, boka o'simligi ko'p bo'lishini, Bu yerlarda o'ttiz to'rt xil lola navini sanatganini aytadi.



Date: 3rd March-2025

Yuqoridagi fikirlarda bir o'simlik turidan baliq ovlash sir asrorlari ayon qilingan bo'lsa , quyidagi fikirlarda tibbiyotga oid ma'lumot keltirilgan ,, Har isitqonda g'arki araq bo'lmaguncha isitma qo'yimas erdi. O'n-o'n ikki kundan keyin, bir – ikki qatla nargis birla ichtim". Ushbu ma'lumotlardan kelib chiqadiki, nargisni chog'ir bilan ichsa , isitmada davo bo'lar ekan .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Boburnoma ; Toshkent ;Sharq nashriyoti 2019.
- 2.Azimov, Y., To'xsanov, Q., Adizov, B., Sharipova, M., & Hojiyeva, N. (2024). Statistical analysis of thrift and ecological education concepts in elementary school students. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 587, p. 02020). EDP Sciences.

